



HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO-HUQUQIY HUJJATLAR TASNIFI VA HUQUQIY AHAMIYATI

SUBANOV Olimjon Suyarkul o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, dotsent (+99898) 331-70-73

Annotasiya. Mazkur maqolada Inson huquqlarining xalqaro-huquqiy standartlarini milliy huquq tizimiga tatbiq etish masalalari kompleks tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, xalqaro huquq, inson huquqlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jus cogens, xalqaro standartlar, majburiy va tavsiyaviy hujjatlar, "Pekin qoidalari", minimal standart qoidalari, demokratik davlat, milliy qonunchilik, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi.

КЛАССИФИКАЦИЯ И ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ, РЕГУЛИРУЮЩИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ.

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ вопросов имплементации международных стандартов в области прав человека в национальную правовую систему.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Конституция, международное право, права человека, правоохранительные органы, верховенство права, международные стандарты, обязательные и рекомендательные документы, «Пекинский регламент», правила минимального стандарта, демократическое государство, национальное законодательство, стратегия «Узбекистан – 2030».





CLASSIFICATION AND LEGAL SIGNIFICANCE OF INTERNATIONAL LEGAL DOCUMENTS REGULATING THE ACTIVITIES OF LAW ENFORCEMENT AGENCIES.

Annotation. This article presents a comprehensive analysis of the implementation of international human rights standards into the national legal system.

Key words: The Republic of Uzbekistan, the Constitution, international law, human rights, law enforcement agencies, the rule of law, international standards, mandatory and recommendatory documents, the Beijing Regulations, minimum standard rules, democratic state, national legislation, the Uzbekistan 2030 strategy.

Hozirgi globallashuv sharoitida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ularni xalqaro standartlar asosida himoya qilish har bir demokratik-huquqiy davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida o'z tashqi va ichki siyosatini xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalariga muvofiq ravishda amalga oshirib kelmoqda. Konstitutsiyada inson huquqlariga oid universal xalqaro hujjatlar qoidalarining aks ettirilishi mamlakatda inson huquqlari ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan mustahkam huquqiy asos mavjudligidan dalolat beradi.

Inson huquqlarini ta'minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu organlar faoliyatining samaradorligi, avvalo, inson huquqlariga qay darajada hurmat bilan yondashilishi va ularning amalda ta'minlanishiga bog'liq. Shu ma'noda, xalqaro-huquqiy hujjatlarda belgilangan standartlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, ularning professionallik darajasini oshirish va jamiyatda qonuniylik hamda adolatni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishda inson huquqlari sohasidagi asosiy xalqaro hujjatlar, ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga taalluqli bo'lgan qoidalari, shuningdek, majburiy va tavsiyaviy xarakterga ega xalqaro standartlarning mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shu orqali inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro me'yorlar va milliy qonunchilik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari yoritib beriladi.





O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ekti hisoblanadi. Davlatning tashqi siyosati suveren davlatlarning tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilmaslik, davlat chegaralarining daxlsizligi, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, shuningdek, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalariga asoslanadi.

Shu bilan birga, Konstitutsiya normalariga binoan, O‘zbekiston Respublikasi davlat va xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi hamda milliy xavfsizligini ta’minlash maqsadida turli ittifoqlar tuzish, xalqaro hamdo‘stliklar va boshqa davlatlararo tuzilmalarga qo‘shilish, shuningdek, ulardan chiqish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda mustahkamlangan inson huquqlari normalarining ifodalanishi mazkur xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalarining milliy huquq tizimida ustuvor ahamiyat kasb etishini ta’minlaydi va ularga jus cogens — ya’ni umummajburiy xalqaro huquq normalari xarakteri berilishini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan, BMT Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktlarda belgilangan tamoyil va me’yorlarni o‘zining konseptual asosi sifatida qabul qilgan holda, milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni qamrab olgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi PF–158-sonli Farmonining qabul qilinishi ob’ektiv zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Inson huquqlari xalqaro huquq normalari hamda milliy qonunchilik hujjatlari bilan kafolatlangan bo‘lib, mazkur huquqiy himoya mexanizmi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining barcha yo‘nalishlariga, jumladan, ichki ishlar organlari faoliyatiga ham to‘liq tatbiq etiladi. Inson huquqlariga rioya qilish va ularni ta’minlash huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi,





zero, ular o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida inson huquqlarini nafaqat hurmat qilishi, balki ularni faol ravishda himoya qilishi ham shart.

Shu bilan birga, demokratik-huquqiy davlat sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi, avvalo, ularning inson huquq va erkinliklariga bo'lgan munosabati, mazkur huquqlarga rioya etish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shuningdek, inson huquqlarining davlat hokimiyati tomonidan ta'minlanish darajasi demokratik jamiyatning muhim indikatori ekanligini ko'rsatadi.

Inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish masalasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo hisoblanadi. Chunki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalari — jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoiy ishlar bo'yicha tergovni amalga oshirish hamda aholining huquqiy himoyaga muhtoj qatlamlariga huquqiy yordam ko'rsatishdan iborat bo'lib, mazkur vazifalarni fuqarolar bilan o'zaro ishonch va hamkorliksiz samarali hal etish mumkin emas.

Inson huquqlari tizimli ravishda buzilayotgan davlatlarda fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchi pasayishi, natijada esa ushbu organlar faoliyati samaradorligining susayishi kuzatiladi. Bu holat huquqni muhofaza qilish tizimining jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda faoliyat yuritishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligi va kasbiylik darajasi faqat inson huquqlarini ta'minlash bilan cheklanib qolmasdan, har bir xodimning hayoti va shaxsiy xavfsizligini kafolatlash masalasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Huquqiy tartibotni ta'minlovchi mansabdor shaxsning hayoti va xavfsizligiga nisbatan har qanday tahdid jamiyat barqarorligi va davlat xavfsizligiga qaratilgan tahdid sifatida baholanishi lozim.

Shu paytga qadar inson huquqlari sohasida qabul qilingan asosiy, umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlar — jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va xalqaro paktlar tahlil qilindi. Mazkur hujjatlarda inson huquqlari, avvalo, umumiy tamoyillar va asosiy huquqiy me'yorlar sifatida ifodalangan.





Ushbu hujjatlar doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga bevosita taalluqli bo'lgan normalarni ajratib ko'rsatadigan bo'lsak, ular asosan ta'qiq va cheklovlar xarakteriga ega ekanligi, xususan, shaxsning erkinligi va xavfsizligi, adolatli sudlov tamoyillariga rioya etgan holda tergovni amalga oshirish talablari ustuvor o'rin tutishi aniqlanadi.

Biroq xalqaro huquq amaliyotida shunday hujjatlar ham mavjudki, ularda mazkur umumiy tamoyil va qoidalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining turli yo'nalishlariga nisbatan batafsil qo'llanma va aniq me'yorlar shaklida bayon etilgan.

Ayniqsa, BMT tizimi doirasida, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilishga bag'ishlangan kongresslar doirasida turli davrlarda qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlar yuridik kuchi, adresat sub'ektlari va tartibga solish doirasiga ko'ra farqlanib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini xalqaro standartlar asosida tartibga solishga xizmat qiladi.

Xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan inson huquqlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun belgilangan xalqaro standartlarini muayyan mezonlar asosida tasniflash mumkin.

Birinchi navbatda, ularni faoliyat doirasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

a) Sudgacha bo'lgan jinoyat protsessida ishtirok etuvchi sub'ektlar — prokurorlar, tergovchilar va surishtiruvchilar faoliyatiga taalluqli hujjatlar. Ushbu toifaga sud ta'qibini amalga oshiruvchi shaxslar faoliyatining asosiy tamoyillari, huquqni muhofaza qiluvchi mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodekslari, shuningdek, kuch va o'q otish qurolini qo'llashning asosiy prinsiplarini belgilab beruvchi xalqaro hujjatlar kiradi.

b) Penitensiar muassasalar faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar. Mazkur guruhga o'q otish qurolidan foydalanishning minimal standartlari hamda mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy tamoyillarini belgilaydigan normalar kiritiladi.

v) Advokatlar va himoyachilar faoliyatiga taalluqli xalqaro hujjatlar. Ular, avvalo, huquqshunoslar roliga oid asosiy tamoyillarni o'z ichiga olib, shaxsning himoyalaniish huquqini samarali ta'minlashga qaratilgan.





g) Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlar. Ushbu toifaga “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya, shuningdek, ozodlikdan mahrum qilingan voyaga yetmagan shaxslar huquqlarini ta‘minlashga doir BMT qoidalarini kiradi.

d) Sudlar va sudyalarning faoliyatiga oid xalqaro hujjatlar. Ular sud hokimiyatining mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan asosiy tamoyillarni belgilaydi.

Ikkinchidan, xalqaro inson huquqlari standartlarini yuridik kuchiga ko‘ra ham tasniflash mumkin:

a) majburiy yuridik kuchga ega bo‘lgan xalqaro-huquqiy hujjatlar, ya‘ni davlatlar uchun huquqiy majburiyat yuklaydigan konvensiyalar va paktlar;

b) majburiy yuridik kuchga ega bo‘lmagan, tavsiyaviy xarakterdagi me‘yorlar, ular huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari standartlarini amaliy jihatdan joriy etish uchun yo‘riqnoma va model vazifasini bajaradi.

Majburiy yuridik kuchga ega bo‘lgan xalqaro-huquqiy vositalar, avvalo, pakt va konvensiya shaklida qabul qilinadigan shartnomalardan iborat bo‘lib, ular ishtirokchi davlatlar uchun huquqiy majburiyatlar yuklaydi. Bunday hujjatlar qo‘llanilish doirasiga ko‘ra universal yoki mintaqaviy, shuningdek, mazmuniga ko‘ra umumiy yoki muayyan sohalarga taalluqli bo‘lishi mumkin.

Inson huquqlarining turli yo‘nalishlarini qamrab olgan, umumiy xarakterga ega bo‘lgan eng muhim xalqaro shartnomalar qatoriga “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt hamda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt kiradi. Mazkur hujjatlar inson huquqlarini ta‘minlash sohasida xalqaro huquqiy tizimning asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga, mintaqaviy darajada inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro shartnomalar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular jumlasiga Inson huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi, Inson va xalqlar huquqlari to‘g‘risidagi Afrika xartiyasi hamda boshqa mintaqaviy shartnomalarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, davlatlar muayyan masalalarga oid, ya‘ni inson huquqlarining alohida toifalari yoki muayyan huquqbuzarlik turlarini bartaraf etishga qaratilgan





xalqaro shartnomalarni ham imzolashi mumkin. Ushbu toifaga, xususan, Irqiy kamsitishning barcha turlarini barham toptirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Genotsid jinoyatining oldini olish va u uchun jazo belgilash to'g'risidagi konvensiya, "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiya hamda Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi konvensiya kabi xalqaro hujjatlar kiradi.

Tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan ayrim xalqaro hujjatlar bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, ular inson huquqlarini ta'minlashda muhim uslubiy va amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, bunday hujjatlar qatoriga huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslarning xulq-atvori bo'yicha BMT Kodeksi, Yevropa Kengashining politsiya faoliyati to'g'risidagi deklaratsiyasi, shuningdek, huquqni ta'minlovchi mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o'q otish qurolini qo'llash bo'yicha BMTning asosiy tamoyillari kiradi.

Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari 1955-yilda BMTning jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish masalalariga bag'ishlangan birinchi Kongressida qabul qilingan bo'lib, ular penitensiar tizimda inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy xalqaro standart sifatida e'tirof etiladi. Keyinchalik, 1971-yilda BMT Bosh Assambleyasi ishtirokchi davlatlarga mazkur qoidalarni penitensiar va axloq tuzatish muassasalarini boshqarish amaliyotida samarali qo'llash hamda ularni milliy qonunchilikka joriy etish masalasini ijobiy hal etishni tavsiya etgan.

Shuningdek, 1976-yilda BMT Bosh Assambleyasi Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ushlab turish va qamoqda saqlanishning har qanday shakllariga duchor bo'lgan shaxslarni himoya qilish maqsadida tibbiy etika kodeksining loyihasini ishlab chiqishni taklif etdi. Natijada, 1982-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro ilmiy tibbiy tashkilotlar Kengashi hamda Xalqaro tibbiy assambleya hamkorligida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Tibbiy etika tamoyillari qabul qilindi.

Mazkur tamoyillar tibbiyot xodimlari, ayniqsa, shifokorlarning ushlab turilgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarni qiynoq, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi muomala hamda jazolash turlaridan himoya qilishdagi kasbiy va axloqiy majburiyatlarini belgilab beradi. 1983-yilda esa BMT





Bosh Assambleyasi barcha davlatlarni tibbiyot xodimlari hamda ushlab turish va qamoqda saqlash vakolatiga ega bo'lgan idoralar xodimlari tomonidan ushbu tamoyillarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga da'vat etdi.

1985-yilda BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha Yettinchi Kongressi tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan sudlovni amalga oshirishga doir BMTning Minimal standart qoidalari, ya'ni "Pekin qoidalari" ishlab chiqildi hamda ularni qabul qilish uchun BMT Bosh Assambleyasiga tavsiya etildi. Mazkur Qoidalar voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan minimal yoshni belgilash, voyaga yetmaganlarga nisbatan sudlovni amalga oshirishning maqsadlari, shuningdek, ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan adolatli, samarali va insoniy sudlovni ta'minlashga qaratilgan asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, Qoidalar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish tartibi, odil sudlovni amalga oshirish hamda sudgacha qamoqda saqlash masalalarini qamrab olgan bo'lib, ularda jazo choralarini qo'llashda axloqni tuzatish muassasalariga jo'natishni istisno holat sifatida, ya'ni minimal darajada qo'llash tavsiya etilgan. Qoidalarda, shuningdek, jazoni o'tash muassasalarida voyaga yetmagan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid normalar ham mustahkamlangan.

BMT Bosh Assambleyasi mazkur Qoidalarni 1985-yilda qabul qilgan hamda davlatlarga ularni barcha tegishli hollarda qo'llashni, shuningdek, ushbu hujjat mazmunini tegishli davlat organlari, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va aholi o'rtasida keng targ'ib etishni tavsiya etgan.

Aytib o'tish lozimki, mazkur xalqaro hujjatlar yuridik jihatdan majburiy kuchga ega bo'lmas-da, ular majburiy xalqaro shartnomalarda belgilangan qoidalarni mazmunan boyitadi va mustahkamlaydi, inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarning batafsil tizimini shakllantiradi hamda davlatlar va ularning huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan ushbu standartlarga rioya etilishiga amaliy ko'maklashadi.

Ushbu hujjatlarning ahamiyati quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi: *birinchidan*, ular davlatlarning milliy qonunchiligini ishlab chiqish va uni takomillashtirish





jarayonida model hamda standart vazifasini bajaradi; *ikkinchidan*, mazkur hujjatlar xalqaro tashkilotlar (BMT, YEXHT va boshqalar) tomonidan davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimining demokratlashuv darajasini baholashda mezon sifatida qo'llaniladi; *uchinchidan*, ushbu hujjatlar mazmuni huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular asosida ichki idoraviy buyruqlar, yo'riqnomalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarda to'la huquqli sub'ekt sifatida faoliyat yuritishi, uning tashqi va ichki siyosatini xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari asosida amalga oshirishini taqozo etadi. Konstitutsiyaning 17-moddasida mustahkamlangan qoidalar davlatning suveren tenglik, kuch ishlatmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish va ichki ishlarga aralashmaslik kabi fundamental tamoyillarga sodiqligini ifoda etib, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquqiy tizimning xalqaro huquq bilan uyg'unligini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlandiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda xalqaro paktlarda belgilangan inson huquqlari normalarining ifodalanishi mazkur qoidalarining milliy huquq tizimida ustuvor ahamiyat kasb etishiga, ayrim hollarda esa jus cogens xarakteriga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa milliy qonunchilikni takomillashtirishda xalqaro standartlarning hal qiluvchi o'rnini belgilab beradi. Shu ma'noda, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qabul qilinishi inson huquqlarini ta'minlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan tizimli islohotlarning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligining muhim sharti ekanligi asoslandi. Fuqarolarning ushbu organlarga bo'lgan ishonchi, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish samarasi bevosita inson huquqlarining ta'minlanish darajasi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Inson huquqlarining tizimli ravishda buzilishi esa huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi isbotlandi.





Tahlil natijasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga taalluqli inson huquqlarining xalqaro standartlari faoliyat doirasi va yuridik kuchiga ko'ra tasniflanib, majburiy va tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan xalqaro hujjatlarning o'zaro bog'liqligi ochib berildi. Ayniqsa, BMT doirasida qabul qilingan kodekslar, minimal standart qoidalar va "Pekin qoidalari" kabi hujjatlarning huquqni qo'llash amaliyoti uchun muhim uslubiy ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berildi.

Umuman olganda, mazkur xalqaro hujjatlar yuridik jihatdan majburiy bo'lmasada, ular milliy qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson huquqlari standartlari asosida tashkil etish, shuningdek, davlatning demokratik rivojlanish darajasini baholashda muhim model va mezon vazifasini bajaradi. Shu bois, ushbu xalqaro standartlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga izchil joriy etish, ular asosida ichki me'yoriy hujjatlar va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmon.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e'lon qilingan. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.

